

“Charxpalak” texnologiyasi



Ushbu texnologiya o‘quvchilarni o‘tilgan mavzularni esga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to‘g‘ri javob berishga va o‘z-o‘zini baholashga o‘rgatishga hamda qiska vaqt ichida o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan.

Texnologiyaning maqsadi: o‘quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o‘z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o‘zlarini baholash. yakka va guruhlarda ishlashga. boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, ko‘p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o‘rgatish.

Texnologiyaning qo‘llanilishi: texnologiya o‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlarida dars boshlanishi yoki dars oxirida yoki o‘quv predmetining biron bir bo‘limi tugallanganda, o‘tilgan mavzularni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o‘tkazish uchun mo‘ljallangan. Ushbu texnologiyani mashg‘ulot jarayonida yoki uning bir qismida yakka, kichik guruh va jamoa shaklida tashkil etish mumkin.

Mashg‘ulotda foydalaniladigan vositalar: tarqatma materiallar, rangli qalam (yoki marker)lar.

Mashg‘ulotni tashkil etishda reja bo‘yicha belgilangan mavzu hamda o‘qituvchining qo‘ygan maqsadi asosida (tekshirish, mustahkamlash, baholash) tarqatma materiallar (agar yakka tartibda o‘tkazish mo‘ljallangan bo‘lsa, guruh o‘quvchilari soniga, agar kichik guruhlarda o‘tkazish belgilangan bulsa, u holda guruhlar soniga qarab tarqatma materiallar) tayyorlanadi.

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:

1. O‘quvchilarni guruhlariga ajratish.
2. O‘quvchi mashg‘ulotni o‘tkazishga qo‘yilgan talablar va qoidalar bilan tanishtirish.
3. Tarqatma materiallarni guruh a‘zolariga tarqatish.
4. Guruh a‘zolari tomonidan yakka holda mustaqil ravishda tarqatma materiallardagi vazifalar bajariladi.
5. Har bir guruh a‘zosi o‘zi ishlagan tarqatma materialining o‘ng burchagiga guruh raqamini yozadi, chap burchagiga esa o‘zining biron-bir belgisini chizib qo‘yadi.
6. Vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlariga «charxpalak aylanmasi» yo‘nalishida almashtiriladi.
7. Yangi guruh a‘zolari tomonidan berilgan materiallar o‘rganiladi va o‘zgartirishlar kiritiladi.
8. Jamoalar tomonidan o‘rganilgan va o‘zgartirishlar kiritilgan materiallar yana yuqorida eslatilgan yo‘nalish bo‘yicha guruhlararo almashtiriladi (ushbu jarayon guruhlar soniga qarab davom ettiriladi).

9. Materiallarni oxirgi almashinishdan so'ng har bir guruh va har bir guruh a'zosi o'zlari ilk bor to'ldirgan materiallarini (guruh raqami va o'zlari qo'ygan belgilari asosida tanlab oladilar).
10. Har bir guruh a'zosining o'zlari belgilagan javoblariga boshqa guruh a'zolarining tuzatishlarini taqqoslaydilar va tahlil qiladilar.
11. O'qituvchining tarqatma materialda berilgan vazifalarini o'qiydi va jamoa bilan birgalikda to'g'ri javoblarni belgilaydi.
12. Har bir o'quvchi to'g'ri javob bilan belgilangan javoblar farqlarini aniqlaydilar, kerakli ballni to'playdilar va o'z-o'zini baholaydilar.

Izoh: tarqatma materialda o'quvchilar belgilagan to'g'ri javoblar bilan o'qituvchi hamkorligida aniqlangan to'g'ri javoblarning farqi 55 foizdan yuqori bo'lsa, o'quvchi ushbu o'quv materialini o'zlashtirgan, undan kam bo'lsa o'zlashtira olmaganligini bildiradi. O'quvchilar o'z baholari yoki ballarini belgilab olishgach, o'qituvchi vazifa bajarilgan qog'ozlarni yig'ib oladi va ballarni guruh jurnaliga ko'chirib qo'yadi.

Quyida «Charxpalak» texnologiyasidan foydalangan holda “**Gulli o'simliklarning hayotiy shakllari**” mavzusida mashg'ulot o'tkazish uchun zarur bo'lgan materialni taqdim etamiz.

Tarqatma №1

№	O'simlik turlari	Gulli o'simliklarning hayotiy shakllari			
		Daraxt	Buta	Yarim buta	O'tlar
1	Qarag'ay	+			
2	Izen			+	
3	Zirk		+		
4	Sachratqi				+
5	Na'matak		+		
6	Machin				+
7	Uchqat		+		
8	Yalpiz				+
9	Chinor	+			
10	Sholg'om				+
11	Kashtan	+			
12	Limon		+		
13	Shuvoq			+	
14	Lola				+
15	Jag'-jag'				+

Izoh: Ushbu namunadagi “+” belgilarini olib tashlangan holda o'quvchilarga tarqatma tayyorlanadi.